

O'QUVCHILARGA KOREYS VA INGLIZ TILINI O'QITISHDA UMUMIY METODLAR

Zayniddinova Sarvinoz Jamoliddin qizi

O'zbekiston Jahon Tillari Universiteti Talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola koreys hamda ingliz tilini o'rgatishning umumiy metodlari haqida bo'lib, hozirgi kundagi eng samarali metod deb topilgan usullar yozilgan va bir metodni ikki chet tilida qanday qo'llash mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Koreys tili, ingliz tili, metod, so'rovga asoslangan ta'lim, jismoniy harakatlar va imon-ishora orqali o'qitish metodi, domino metodi, "suggestopia"*

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идёт об общих методах преподавания корейских и английских языков, методах, признанных наиболее эффективными на сегодняшний день, а также дана информация о том, как использовать один и тот же метод на двух иностранных языках.

Ключевые слова: *корейский язык, английский язык, методика, исследовательское обучение, метод обучения двигательной активности и жестам, метод домино, «suggestopia».*

ABSTRACT

This article discusses common methods of teaching Korean and English, methods recognized as the most effective today, and provides information on how to use the same method in two foreign languages.

Key words: *Korean, English, methodology, research-based learning, movement and gesture teaching method, domino method, suggestopia.*

KIRISH

Bugungi kunda chet tillarni bilish har qachongidan ham muhim. Ko'gina davlatdagi ta'lim muassasalarda o'quvchilar kamida ikkita tilni o'zlashtiradilar. Globalashuv davrida ko'p tililik xalqaro aloqalarga, iqtisodiy imkoniyatlarga va xalqlar orasidagi madaniy almashinuvlarga yo'l ochib beradi. Bundan tashqari, chet tillarini bilish insonni dunyoqarashini o'stiradi. Shu o'rinda rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, o'quvchilar, butun dunyo xalqi uchun ikkinchi til sifatida o'rganiladigan ingliz tili bilan kifoyalanib qolmay, undan tashqari so'nggi yillarda jahonda o'z o'rniga ega bo'lgan Koreya davlatining tilini o'rganishmoqda. Statistika ko'ra, koreys tili dunyoda eng ko'p ishlatiladigan tillarning

guruhining top yigirmataligida mavjud ekan.⁸ Metodistlar bundan kelib chiqib chet tillarni yana osonroq o‘rgatish uchun ko‘plab usullar o‘ylab topmoqda. Bunga so‘rovga asoslangan ta‘lim, jismoniy harakatlar va imon-ishora orqali o‘qitish Metodi, domino Metodi va “suggestopia” o‘qitish metodlarini misol keltirsak bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Didaktlar (ta'limshunoslar) „metod“ terminini-bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va talabaning ish usuli ma'nosida izohlaydilar.⁹

So‘rovga asoslangan ta‘lim

TBL(task-based learning) Fokus muayyan vazifalar yoki loyihalarni bajarish orqali tilni o'rganishga qaratiladi. Misol uchun o'quvchilar koreys tilida yoki ingliz tilida taom buyurtma qilish, sayohat yo‘nalishini tayyorlash yoki shu ikki tilda suhbatlashish kabi haqiqiy vazifalar beriladi. Til bu vazifalarni bajarish uchun vosita sifatida o'rganiladi. Foydali Tomoni esa maqsadga yo‘naltirilgan o‘rganish tajribasini taqdim etadi, mazmunli kontekstlarda tildan faol foydalanishga yordam beradi.¹⁰

Jismoniy harakatlar va imon-ishora orqali o‘qitish Metodi

Bu metodda (Learning through physical actions and gestures) o'quvchilar o'ganayotgan narsasini qo'l yiki tana harakati orqali o'rganishadi. Masalan, o'qituvchilar koreys tilida yoki ingliz tilida buyruq beradilar, o'quvchilar esa ularga jismoniy harakat bilan javob berishadi (misol uchun, “앉다(sit)”, “서다(stand)”). Bu usul xotiraga yaxshi ta'sir qiladi va tilni tinglashga va tushunishga yordam beradi, ayniqsa, yosh o'quvchilar yoki yangi tilni o'rganishni endi boshlaganlar uchun samarali, qiziqarli va kam stressli o'quv muhitini yaratadi.¹¹

Domino Metodi

Domino metodi - fikriy jarayonlarni mos tushunchalar ketma – ketligida to'g'ri taqdim etib, biror bir shaklni hosil qilishdir. Bu usul talabalarni ijodiy va aqliy qobiliyatini o'stirishga, o'zaro hamkorlikda ishlashga va rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga fanning bir bo'limiga yoki mavzuga doir savol va javoblar yozilgan to'g'ri to'rtburchaklar tayyorlash uchun o'qituvchini o'z ustida ishlashga hamda fanga doir yangi bilimlar olishga majbur qiladi.¹² Domino metodini amaliy mashg'ulotlarda qo'llashda o'qituvchi talabalarni uchta kichik guruhga bo'lib, kichik guruhlarda ishlaydilar. Har bir kichik guruhga o'ng tomoniga savol va chap tomoniga javoblar yozilgan to'g'ri to'rtburchaklar beriladi. Har bir

⁸ <https://www.optilingo.com/blog/korean/10-reasons-to-learn-korean/#:~:text=Korean%20Is%20Useful,will%20need%20to%20know%20Korean>

⁹ Jamol Jalolov “Chet til o‘qitish metodikasi” Toshkent-2012,[74-bet]

¹⁰ <https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/knowning-subject/t-w/tbl-task-based-learning/#:~:text=Task%2Dbased%20learning%20is%20an,teacher%20discusses%20the%20language%20used.>

¹¹ <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0010027718301859#:~:text=Learning%20through%20physical%20action%20with,interacting%20directly%20with%20external%20objects>

¹² <https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talim-vazirligi-v4.html?page=4>

kichik guruhdan bir talaba ushbu to‘g‘ri to‘rtburchakdan birini olib, stol ustiga (pinbord oynasiga) o‘rnatadi. Keyingi talaba to‘g‘ri to‘rtburchakning o‘ng tomonidagi savolga mos keladigan javob yozilgan to‘g‘ri to‘rtburchakni uning yoniga o‘rnatadi. Huddi shu ketma-ketlikda qolgan talabalar to‘g‘ri to‘rtburchaklarni bir-biriga mos ravishda o‘rnatadilar. Oxirgi o‘rnatilgan to‘g‘ri to‘rtburchakdagi savolning javobi birinchi o‘rnatilgan to‘g‘ri to‘rtburchakdagi javobga mos kelishi kerak. Bu metodni lu‘gat so‘ralishi kerak bo‘lsa, ishlatsak bo‘ladi, ya‘ni so‘z tarjimasi bilan so‘zning o‘zini bir-biriga mos ravishda o‘rnatish zarur bo‘ladi.

“Suggestopia”Metodi

Suggestopia Metodi to suggest+pedagogy, ya‘ni “pedagogikani taklif qil” degan ma‘noni anglatadi va bolgariyalik psixolog Georgiy Lazanov tomonidan o‘ylab topilgan.¹³ “Suggestopedia” ,sinfning atmosferasi, "o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va qulayligini" ta‘minlanishining muhim omillari ekanligini ta‘kidlaydi. Suggestopedia pedagogikasi uch bosqichdan iborat: transkripsiya, konsert sessiyasi va rivojlanish. Transkripsiya: bu bosqichda o‘qituvchi chet tilidagi matnni yozma yoki og‘zaki mazmuni bilan o‘z o‘quvchilarini tanishtiradi. Ko‘pgina materiallarda chet tilidagi matn sahifaning chap tomonida , tarjimasi esa o‘ng tomonda joylashgan bo‘ladi. Konsert sessiyasi: faol va passiv sessiyalardan iborat. Faol mashg‘ulotda o‘qituvchi matnni odatdagi tezlikda o‘qiydi, talabalar esa kuzatib boradi. Passiv mashg‘ulotda talabalar dam olishadi va o‘qituvchining matnni o‘qishini tinglashadi. Orqa fonda barokko musiqasi yangraydi. Rivojlanishni o‘quvchilar o‘z bilimlarini aktyorlik, qo‘shiq va o‘yinlar orqali ifodalaydilar. Shu orqali ular o‘rganishyotgan tilini yanada yaxshi tushuna boshlashadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatayotganda ularni tilga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish uchun yuqoridagi metodlar yoki shu kabi turli xil interfaol usullardan foydalanish kerak. Har bir metod yoki usul o‘qituvchi tomonidan tanlab olingan dars - mashg‘ulotning effektivligini nafaqat kuchaytirib qolmasdan, balki o‘quvchining reproduktivligini oshiradi, bu o‘qituvchining o‘z odiga qo‘ygan maqsadlari sari bir qadam oldin qo‘yilganlik maqsadini ifodalaydi.¹⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.optilingo.com/blog/korean/10-reasons-to-learn-korean/#:~:text=Korean%20Is%20Useful,will%20need%20to%20know%20Korean.>
2. Jamol Jalolov “Chet til o‘qitish metodikasi” Toshkent-2012,[74-bet]
3. <https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/knowning-subject/t-w/tbl-task-based-learning#:~:text=Task%2Dbased%20learning%20is%20an,teacher%20discusses%20the%20language%20used.>

¹³ <https://fastlearningschool.com/blog/suggestopedia-meaning-and-message-in-the-21st-century/>

¹⁴ O‘ Hoshimov, LYoqubov. "Ingliz tilini o‘qitish metodikasi" (o‘quv qo‘llanma) T., Sharq Nashriyoti 2013

4. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0010027718301859#:~:text=Learning%20through%20physical%20action%20with,interacting%20directly%20with%20external%20objects>
5. <https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talim-vazirligi-v4.html?page=4>
6. <https://fastlearningschool.com/blog/suggestopedia-meaning-and-message-in-the-21st-century/>
7. O' Hoshimov, LYoqubov. "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) T., Sharq Nashriyoti 2013